

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk" dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)

Zarnigor Davronova¹

Abstrakt

Onomastika masalalari har bir davr uchun dolzarb bo'lib kelgan. O'zbek nomenklaturasining o'ziga xos rivojlanish bosqichi bor. Ayniqsa, XX asr boshlarida Abdulla Qodiriy asarlarida uchraydigan antroponimlarning rivojlanishini o'rganish o'zbek onomastikasi uchun muhim ilmiy xulosalar beradi. Maqsad: XX asr boshlarida antroponimlar va ular bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar, taxalluslar, taxalluslarning rivojlanishi, tarkibiy-semantik xususiyatlarini o'rganish, ularni tarixiy-etimologik va lingvokognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish. 20-asr boshidagi taxalluslarni tavsiflash, statistik, tarixiy-etimologik va lingvokognitiv tahlillar, strukturaviy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu maqolada adibning yuksak san'atkorlik, aql-zakovat haqidagi qarashlari o'rin olgan. Shuningdek, har bir asarning g'oyaviy mazmunini to'ldiradigan antroponim yoki unga yaqin bo'lgan taxallusning o'rinli qo'llanishi shakl va ma'no jihatdan asarga mos kelishi tahlillar asosida ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: *onomastika, ism, familiya, ota ismi, taxallus, laqab, makon va zamonning semantik tahlili, millat, bosqich, uslubiy, badiiy.*

Zamonaviy o'zbek onomastikasining eng muhim bo'limlaridan biri bu antroponimikadir. O'zbek tilida antroponim termini o'rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar ham qo'llanadi. Tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy milliy-madaniy, etnografik, badiiy-estetik mohiyatga ega onomastik birliklarning eng qadimiy va asosiy turi antroponimik birliklardir. Toponimlar semantikasida tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabat, milliy-madaniy xususiyatlar jamlaganidek, antroponimlarda milliy qadriyatlar, shaxs tafakkuri, idroki o'z ifodasini topadi.

¹ Davronova Zarnigor – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti.

E-pochta: zarnigordavronova12@gmail.com

ORCID-ID: 0000-0001-6794-9542.

Iqtibos uchun: Davronova Z. Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida). *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 100-112.

Ism, familiya, ota ism, laqab va taxalluslarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish doimo e'tiborda bo'lib kelgan.

Ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'zbek xalqida ismlarning o'рни va mohiyati katta. Bola tug'ilgach, unga yaxshi niyatlar bilan ism tanlanadi, bu jarayonga nominatorlar (ya'ni, ism qo'yuvchilar) turlicha yondashdilar. "Chaqaloqqa qo'yilgan ism uning taqdiriga ta'sir qiladi" deyilgan tasavvurlar asosida davrlar o'tishi bilan ismlar bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog'langan, doimo va bir umr yo'ldosh, hamdam vositaga aylanib borgan.

Antroponimlar nomlash funksiyasidan tashqari emotsional-ekspressiv funksiya ham bajaradi. N.Husanovning mumtoz adabiy yodgorliklardagi antroponimlarning uslubiy va ma'noviy o'ziga xosliklari tadqiq qilingan. Tilshunos badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri bo'lgan antroponimlar badiiy asarlarda boshqa so'zlar kabi ekspressiv-uslubiy vazifaga xoslanishi mumkinligini qayd etadi. N.Husanov tarixiy yodgorliklardagi antroponimlarni uslubiy xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya etgan:

1. Nominativ vazifada keluvchi antroponimlar.

2. Ma'lum bir kontekstda o'ziga xos qo'shimcha ma'noni, ekspressiv-emotsional ma'noni oluvchi antroponimlar.

Olim nazmiy asardagi ismning leksik mazmuni bilan muallifning badiiy niyati orasida muntazam aloqa topishga harakat qiladi. XV asr adabiy yodgorliklaridagi shaxs ismlarining o'ziga xos uslubiy-estetik vazifa bajarishini bir necha o'rinda ta'kidlagan. Yodgorliklardagi ismlar qahramonning tashqi qiyofasiga, kasbiga, ruhiyatiga, millatiga, asarning umumiy g'oyasiga va joyiga mutanosib ravishda izchillik bilan tanlanganini qayd etgan (Husanov 2014, 105).

O'zbek tilshunosligida antroponimlarning funksional-stilistik xususiyatlariga bag'ishlangan alohida tadqiqotlar mavjud emas. Mazkur masala bo'yicha bayon qilingan ba'zi mulohazalarnigina uchratish mumkin. Jumladan, Sh.Abdurahmonov antroponimlarni kulgi qo'zg'atuvchi vosita sifatida tadqiq etgan. M.Yo'ldoshev esa A.Qodiriy, A.Qahhor, S.Ahmad hajviy asarlaridagi bir qator asar qahramonlarining ismlariga alohida diqqat qaratadi. Olim maqsadli qo'llangan bunday nomlarda yozuvchining kinoyasi aniq sezilib turganini, bunday antroponimlar badiiy matnda poetik jihatdan kuchli aktuallashgan vositaga aylanishini ta'kidlaydi. Umuman, M.Yo'ldoshev to'g'ri ta'kidlaganidek, mahoratli yozuvchilar

qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o'rtasida mushtaraklik o'rnatish orqali betakror obrazlar yaratishga harakat qiladilar. Bu, albatta, yozuvchining funksional-stilistik mahorati sanaladi va bunday holatlarni tadqiq etish orqali yozuvchining poetik olamiga kirib borish mumkin.

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalar mavjud bo'lib, taxallus, laqab, nisbalar badiiy matnning funksional-uslubiy jihatlarini ochishga xizmat qiladi. Bugungi kunda dunyo adabiyotida shunday taxallus yoki laqablar borki, o'quvchilar bu taxallus yoki laqabdagi shaxsning asosiy ismini bilishmaydi.

Taxallus (arab tilida–qutulish, xalos bo'lish) – biror ijodkor (shoir, yozuvchi, olim va shu kabi) yoki siyosiy arboblarning o'zi uchun tanlab olgan ikkinchi nomi. Har bir muallif taxallusini muayyan maqsadlarni ko'zda tutgan holda qo'llaydi. Masalan, omma o'rtasida o'z ijodini ta'kidlab ko'rsatish, o'z ism familiyasidan qoniqmaslik, muayyan xavf-xatar, tahdiddan qochish, yashirinish va boshqalar. Sharq san'ati va adabiyoti namoyandalari, olimlari o'zlariga turli narsalarga, sifat va xususiyatlarga ishora tarzida taxallus tanlaganlar:

- ulug'langan sifat, xususiyatlar asosida: Ulug'bek – Muhammad Tarag'ay, Navoiy, Lutfiy, Bobur, Mujrim Obid, Munis, Zavqiy;
- mashg'uloti, kasb asosida: Gulxaniy, Charxiy;
- tug'ilgan yoki yashagan joy asosida: Buxoriy, Koshg'ariy, Marg'inoniy, Nasafiy, Taroziy, Xorazmiy, Xo'jandiy, Chustiy, Shoshiy, Yugnakiy, Yassaviy;
- yashash tarzi yoki qismatiga ishora asosida: Gadoiy, G'aribiy, Uzlat, Muqimiy, Furqat.

Sharqda ham, G'arbda ham ko'pchilik ijodkorlar faqat taxallusi bilan mashhur bo'lishgan. Masalan, Beruniy – Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad, Navoiy – G'iyosiddin o'g'li Alisher, Muqimiy – Muhammad Aminxo'ja o'g'li, Yashin – Komil Nu'monov, Chustiy – Nabixon Xo'jayev; Stendal – Anri Mari Beyl, Jorj Sand – Avrora Dyupen va boshqa Ba'zi shoirlar birdan ortiq Taxallus bilan (Navoiy – Foni; Mujrim – Obid; Nodir – Uzlat – Mahjur; Nodira – Maknuna – Komila kabi).

XX asrning boshlarida ijod etgan Mashriq Yunus o'g'li Elbek Fitrat tomonidan tashkil etilgan "Chig'atoy gurungi" to'garagida faoliyat ko'rsatdi. Mazkur faoliyat ta'sirida dastlab matbuotda bosilgan she'r va maqolalarini "Chig'atoy gurungi" taxallusi bilan e'lon qilgan. 1919-yil "O'ksuz" nomli she'ridan boshlab Ustozi tanlab bergan "Elbek" taxallusini qo'llay boshladi. Bizga ma'lumki, o'tmish ajdodlarimizning ko'pchiligi arab va fors so'zlaridan taxallus

tanlashgan. Til sofliги uchun kurashgan “Chig’atoy gurungi” a’zolari esa bu an’anadan voz kehib, sof turkiy so’zlardan taxallus tanlay boshladilar. Masalan, yuksak bilim va iqtidorga ega Fitrat guruh a’zolariga Botu, O’ktam, Elxon, Elchi, Chig’atoy, O’g’uz, O’qtoy, Eltuzar Jig’oy Yildirim kabi jasurlik, qahramonlik bobida dong taratgan ajdodlarimiz nomlari asosida taxallus tanlab bergan (Bobomurodova 2020).

Badiiy matnda taxallus ham o’ziga xos leksik vazifa bajarib keladi. Mumtoz adabiyotimizda ittifoq deb ataladigan she’riy san’at mavjud. Bunda she’rda shoir taxallusining ham lug’aviy ma’nosida, ham taxallus sifatida ishlatilishi nazarda tutiladi. Ya’ni shoir maqta’da o’z taxallusini keltirish barobarida bayt mazmunidan uning lug’aviy ma’nosi ham faollashgani anglashib turadi (Qurbonov 2013). Masalan,

*Muhabbat osmonida go’zal **Cho’lpon** edim, do’stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku! (Cho’lpon)*

Ushbu misolda shoir taxallusi ayni so’zning nominativ ma’nosini ham faollashtiradi.

XX asr ijodkorlaridan Abdulla Qodiriyning “Abdulla Qodiriy” to’plamining 3-jildi – “Diyori bakr”ga adibning biz uchratmagan J-b, M.Abdulla Q, M.A.Q, Mazlum (Eski shaharlik), Eski shayton, Mirza sovrin kabi taxalluslarda e’lon qilingan asarlari ham kiritilganki, ular adibning taxalluslari sonini yanada oshiradi. Ana shularni inobatga olib, bugungi kungacha Qodiriyning 36 ta taxallusi aniqlangan (Safarov 2000).

Ittifoq san’atini Abdulla Qodiriy ijodida ham kuzatish mumkin. Nomlarni o’z badiiy niyatiga muvofiq qo’llash Qodiriyning ilk she’rlaridayoq ko’zga tashlanadi.

Usmon Azim Abdulla Qodiriy haqida shunday deydi: “Qodir rahmon daholarni faqat o’zi suygan elga yuboradi”. Adib, “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror” nomli she’rlarida **Qodir** nomini taxallus, ham turdosh ot sifatida qo’llab, ittifoq san’atini hosil qilgan.

*Kelingiz yoshlar, ziyolilar, bu kun g’ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar **Qodir** esak uyg’otamiz
(A.Qodiriy, “Ahvolimiz”).*

***Qodiriy** nazdingiza oz hasratidan so’yladi
Ayb etib qilmang haqorat, muhtaram ahli vatan
(A.Qodiriy, “Fikr aylagil”)*

*Bu kun men soʻzladim oz nutq siza to **Qodir** oʻlguncha,
Ilohi aylasun taʼsir,shu soʻz sizga bekor oʻlsun
(A.Qodiriy, “Millatimga bir qaror”).*

Abdulla Qodiriy sheʼr, hikoya, ocherk, drama, hajviya va kichik asarlarida turli tuman taxalluslarda yozganligini koʻrish, har bir taxallus uslubiy-funksional vazifa bajaradi.

T/R	Asar nomi (janri)	Qoʻllangan taxallus	Statistikasi
Sheʼrlar			
1	Toʻy		
2	Ahvolimiz	<i>Qodir</i>	1
3	Millatimga bir qaror	<i>Qodir</i>	2
4	Fikr aylagʻil	<i>Qodiriy</i>	1
Hikoya, ocherk, drama			
5	Uloqda	-	
6	Tinch ish...	-	
7	Jinlar bazimi	-	
8	Sakkiz yil	<i>Mirza sovrin</i>	1
9	Otam va bolshevik	<i>Oʻgʻli : Julqunboy</i>	1
10	Ay, xuday urgʻanlar	<i>Dumbul</i>	1
11	Shubha	-	
12	1819-yil yodgori...	<i>Ju-boy</i>	1
13	Baxtsiz kuyov (teyort risolasi)		
Hajviya va kichik asarlar			
14	Dumbasi tushib qolgan emish.....	<i>Julqunboy</i>	1
15	Bozor surishtirmaydir.....	<i>Julqunboy</i>	2
16	Nega kim.....	<i>Julqunboy</i>	3
17	Kula-kula oʻlasan	<i>Julqunboy</i>	4
18	Ijmoli sayosiy.....	<i>Julqunboy</i>	5
19	Azob bogʻchasida - yigʻi-sigʻi kechasi	<i>Julqunboy Dumbulvoy oʻgʻli</i>	1
20	Bildirishlar.....	<i>Mirzavist, Julqunboy, Oʻzbek vakili: Dumbulboyev</i>	1
21	Nafsi shayton	<i>Julqunboy</i>	6
22	Sart ogʻa-inilarga	<i>Julqunboy</i>	7
23	Qurbonliq oʻgʻrilari	<i>Julqunboy</i>	8
24	Matbuot...	<i>Muxlisingiz Julqunboy</i>	1
25	Layli va Majnun	<i>Julqunboy</i>	9
26	Past-u baland dunyoda	<i>Julqunboy</i>	10

27	Davosiz dardlar....	<i>Julqunboy</i>	11
28	Og'zingga qarab gapir...	<i>Julqunboy</i>	12
29	Luzonda ko'ngil ozishlar va isiriq solishlar	<i>Julqunboy</i>	13
30	Tilak	<i>Julqunboy</i>	14
31	Ikki og'iz tariqatdan ham bo'lsin	<i>Muhibbut – tariqat: Julqunboy</i>	1
32	Chuvi chiqdi	<i>Mulla Julqunboy</i>	1
33	Xususiy maktublardan	<i>Julqunboy</i>	15
34	Salomnoma.....	<i>Kelin yangasi: Dumbulnisa</i>	1
35	It urushdirish ishlari	<i>Dumbulvoy o'g'li</i>	1
36	Poskallasi	<i>Dumbul</i>	2
37	“Tavakkaltu alolloh” ni degan er: na talqon-u, na qalqonning g'amin yer	-	
38	Nima qayoqqa ketadir	-	
39	“Ko'mak” uyushmasiga ionalar.	-	
40	Dardi yo'q - kessak, ishqiy yo'q-eshshak	<i>Julqunboy</i>	16
41	Yomon ko'z	-	
42	Birinchi may	-	
43	Biz kim va nimalardan qo'rqamiz?	<i>Julqunboy</i>	17
44	Sovinak qori bilan Mag'zava qori	-	
45	Aralash	<i>Julqunboy</i>	18
46	Uzr	-	
47	Zamonaning zayili	-	
48	Qurbon bayrami.....	<i>J-Q</i>	1
49	E'tiqodotning foydasi..	-	
50	Bo'tqa	<i>Mirza Julqun</i>	1
51	Tashakkur...	-	
52	Milliylashtirish orqasida.	<i>Hozircha xayr, “Mushtum” pochcham</i>	1
53	Huquq.....	<i>Haqiqat e'loni: Julqunboy</i>	1
54	Zilzila	-	
55	Kosa tegida nim kosa	-	
56	Chaqirishlar..	<i>Julqinboy Sovrinboy o'g'li</i>	1
57	Kelinni kelganda ko'r..	<i>Julqunboy</i>	19
58	Hoy, yer yutku.....	<i>Julqunboy</i>	20

59	Chiqib bozor aro poshshoyi tanga, kirib ulturdi ketkan jon-tanga...	<i>Dumbul Devona</i>	1
60	Nahs bosqan ekan	<i>Julqunboy</i>	21
61	Do'stlarga uzrim.....	<i>Julqunboy (A.Q).</i>	1
62	Mahkamayi shar'iyada holva-talqon masalasi....	<i>Domla dumbul</i>	1
63	Maskov xatlari	<i>Julqunboy</i>	22
64	«Mushtum» jurnaliga	-	
65	Pildir, pis.....	-	
66	Maslak-u maqsaddan shammayi izhor	<i>Julqunboy</i>	23
67	Hovadorg'a desang shar-shar, maorifga desang zambar	-	
68	Vijdon sotaman	-	
69	Ibi, ahmaq bo'lling-chi	<i>yo'zg'uchisi: Julqunboy</i>	1
70	Echkining oti Abdikarim	<i>Ovsar</i>	1
71	Yig'indi gaplar....	<i>Ovsar</i>	2
72	Anov-manov	<i>Moshxo'rdachi Shilg'ay</i>	1
73	Shodmarg	<i>Julqunboy</i>	24
74	Bizda teatru ishining borishi	<i>Ju-boy</i>	1
75	Tilanchilik yoxud yengil kasb	<i>Ju-boy</i>	2
76	O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas	<i>Eski shayton</i>	1
77	Matbuot kuni	<i>Julqunboy</i>	25
78	Olti yillik bazm	<i>Julqunboy</i>	26
79	Bir yil.....	<i>Julqunboy</i>	27
80	Cho'lponning "Tong sirlari" she'riy to'plamiga so'zboshi..	<i>Julqunboy</i>	28
81	Burun va hozir	<i>Shilg'ay</i>	1
82	Yozuvchi o'z ijodi to'g'risida	-	
83	Eski kitoblar savdosini qo'lga olaylik...	-	
84	O'qush - o'rganish	-	
85	Shu yaqindag'i bir musohabadan	<i>Julqunboy</i>	29
86	Kalvak Maxzumning xotira daftaridan.	-	
87	Tarjimayi holim.....	-	
88	Kalvak Maxzumdan idoramizga ochiq xat		

89	Avvali ilm kadam ast, oxiri ilm kadam ast	<i>Julqunboy</i>	30
90	Kalvak Maxzumdan.....	<i>Julqunboy</i>	31
91	Kalvak Maxzumdan xat....	<i>Chichora</i>	1
92	Odamizodning aqli yetmaydir	-	
93	“Qishloqqa yuzingni o‘gir!” Bachima‘ni?	<i>Ko‘chiruvchi: Shakkok</i>	1
94	Dardisar.....	-	
95	Qishloqqa qopingni o‘gir!	<i>Dumbul</i>	3
96	Bachtur zamona duchor shudem?.	-	
97	“Qavoidul - umaro”.....	<i>Kalvak Maxzum Shoshiy</i>	1
98	Toshpo‘lad tajang nima deydi	-	
99	Bo‘zaxonada	<i>J.</i>	1
100	Yo‘lda	-	
101	Yo‘lda	<i>J.</i>	2
102	Ma‘lumot uchun	<i>Go‘zimatchi</i>	1
103	Yangi sistem betaraflik....	<i>Julqunboy</i>	32

Abdulla Qodiriy qo‘llagan taxalluslarning statistik tahlili Julqunboy taxallusining chastotasi eng yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Julqunboy 32 marta qo‘llangan. Shuningdek, adibning Juboy, Mirza julqun, Dumbulnisa, Dumbul, Shakkok, Chichora, Ovsar kabi taxalluslari ma‘lum bir badiiy maqsad bilan qo‘llangan. Bu taxalluslarning barchasi maqola mazmunidan kelib chiqqan holda qo‘yilgan.

1924-yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib “Mushtum” jurnalida shtatsiz muxbir bo‘lib ishlay boshladi. Uning “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” va “Kalvak mahzumying xotira daftaridan” turkumidagi satirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosilib bordi.

“Mushtum” jurnalida qo‘llanilgan taxalluslariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, **“Dumbulnisa”, “Dulbulboy o‘g‘li”, “Dumbul”, “Julqunboy”, “Mirza Julqun” “Mushtum pochcham”, “Ovsar” va boshqa...** taxalluslarga duch kelamiz va har bir taxallusning jurnal mazmuni va maqolalar yo‘nalishiga muvofiqligini kuzatamiz. Har bir maqolada jamiyatdagi kamchiliklar satirik kulgu ostiga olinib, taxalluslar vositasida ochib berilgan. *Dumbul* taxallusining lug‘aviy ma‘nosi: *dumbul* ot – 1.Donli ekinlar, mevalarning ta‘m kirib qolgan, lekin hali yetilib pishmagan holati. 2.Aqlsizroq, tentaknamo, devonasifat. 3.Hayot tajribasi bo‘lmagan; xom,

g'o'r. 4. Mazmunan pishiq-puxta emas; xom; qiyomiga yetmagan (O'TIL, I.). Qodiriyning aynan shu **"Dumbulnisa", "Dulbulboy o'g'li", "Dumbul" "Dumbulvoy o'g'li", "Domla dumbul"** shaklidagi taxalluslariga e'tiborni qaratsak asarlari hali pishmagan, aqlsizroq, xom, mazmunan qiyomiga yetmaganligini ko'rishimiz mumkin. Jamiyatdagi kamchiliklar yo'l-yo'lakay aytilib, aniq bir to'xtamga kelinmaydi.

Taxalluslar badiiy matnda turli so'z o'yinlari va badiiy san'atlarni hosil qilish kabi estetik maqsadlar bilan qo'llanadi. Ayniqsa, ittifoq san'atini yuzaga keltirishda taxalluslar muhim ahamiyatga ega.

Aytish joizki, odatdagi metaforada metaforik ma'no bir tushunchani anglatrsa, onomastik metaforada nomishora qilgan ma'no hajmi kengroq bo'ladi. Quyida keltirilgan H.Xudoyberdiyevaning „*Kumushning o'limiga*“ nomli she'rida oqila, go'zal, o'ta iboli qizlar ma'nosiga timsol sifatida qo'llangan Kumush antroponimi onomastik metaforani namoyon qilgan:

*Siz bugungi Kumushlar, ayol zotin sarasi,
Sochingizni to abad ishq qo'llari tarasin,
Otabeklar topsa ham qovushmoqlik chorasin,
Oson emas ekanku abad asramoq suymoq,
Oson ekan-ku axir Sizni boy berib qo'ymoq*

Bunday holatda ongimizdagi go'zallik mezonlari Kumush bilan bog'liq holda kengayadi va bugungi kun qizlarining ham aynan Kumushga o'xshash go'zallikka egaligi, ammo Kumush qismatida hushyor bo'lishlari ta'kidlab o'tilgan.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida o'zbekcha ismlar ko'p miqdorni tashkil qiladi: Kumushbibi, Otabek, O'zbekoyim, Yusufbek-qad yah+o'zb. va b. Asarda ismlar to'liq, qisqargan shakllarda uchraydi. Masalan, *Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi* – **Kumushbibi** edi (Qodiriy 2007). *Oftob oyim kula-kula To'ybekaning Otabek to'g'risida so'zlagan gaplarini va Kumush bilan bo'lg'an mojarosini so'zlab chiqdi* (Qodiriy 2007).

Badiiy matnda to'qima antroponimlar ham muhim ekspressiv vazifa bajarib keladi. Mahoratli ijodkor Abdulla Qodiriy o'z badiiy niyatiga muvofiq turli nomlarni yaratadi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanida Kumushning Otabekka yozgan maktubida Kumush nomi o'rnida **Tuproqbibi** nomi qo'llanadi. Tuproqbibi tilimizdagi mavjud onomastik qolip asosida (Kumushbibi, Oyshabibi kabi ismlarga xos tarzda) yozuvchi tomonidan maqsadli qo'llangan nom bo'lib, ayni paytda tuhmat bilan uyushtirilgan maktubni o'qigach,

Kumushbibida kechgan ichki holatni tasvirlashda muhim leksik qiymat kasb etgan. Yozuvchi o'zini Otabek tomonidan aldangan, xo'rlangan deb o'ylab, qadr-qimmatini yer-tuproq bilan bitta bo'lgan holda his etgan Kumushbibining ichki holatini ko'rsatib berishini Tuproqbibi antroponimiga yuklagan. Bu o'rinda Kumushbibi va Tuproqbibi antroponimlari apellyativ asoslari (kumush va tuproq) o'rtaqidagi ma'noviy ziddiyat ham Kumushning o'sha vaqtdagi holatini aniq va ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan...*Sizga yangi yor, menga uyatsizlikning qurboni bo'lish muborak. Kumush emas, **Tuproqbibi** yozdim. 17-javzo, 1265-inchi yil Marg'ilon* (Qodiriy 2007).

Abdulla Qodiriy Otabekning Kumushga mazkur maktubiga yozgan javobida ushbu nom Otabekni befarq qoldirmaganini ta'kidlash maqsadida unga javoban Oltinbibi ismini tilga oladi. Ya'ni oltinga tenglashtirish orqali oltinning qiymati kumushdanda yuqori ekani, bu bilan Kumushbibining surati yanada yorqinroq chizilgani o'quvchini rostdan hayratlantiradi: Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tirgagi Kumushimga! Kinoya va achchiqlar bilan to'liq bo'lgan maktubingizni oldim. Xatni yozgan chog'ingizda tamom bir o't ichida, g'azab dengizida suzganligingiz gavdalanib ko'z o'ngimdan o'tdilar...*Siz o'zingizni tuproq bilan tenglashtirmakchi bo'lgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay **Oltinbibi** deb atamoq fikriga tushdim...Borlig'im muhabbatigiz alangasi bilan tutashgani holda zavjingiz* (Qodiriy 2007).

Laqablar badiiy manda axborot berishdan tashqari yozuvchining maqsadini ham ifodalashga xizmat qilgan:

*Buyigityaxshig'ina davlatmand bo'lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo'lmay, "**Homid xotinboz**" deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so'zlashkanda uning otig'a taqilgan laqabni qo'shib aytmasalar, yolg'iz "Homidboy" deyish ila uni tanita olmaydirlar* (Qodiriy 2007).

Adibning shu "**xotinboz**" laqabini qo'shib qo'llashining o'ziyoq ko'z o'ngimizda asar personajining qanday odam ekanligini namoyon bo'ladi.

Tarixiy davrlardan shuni ko'rish mumkinki, qul yoki ijtimoiy ahvoli og'ir kambag'al oilada tug'ilgan bolaga *bek, xon, shoh, boyvachcha* kabi elementlar qo'shilmagan. Ijtimoiy kelib chiqishiga qarab zodagon oilaning farzandlariga Hakimboyvachcha, Xudoyorxon, Azizbek kabi ismlar tanlansa, ijtimoiy kelib chiqishi pastroq bo'lgan oilada tug'ilgan bolalarga esa oddiy ismlar tanlangan. Hozirgi paytda har bir inson o'ziga yoqqan ismni tanlab qo'yadi. Badiiy asarlarda shuni ham ko'rish mumkinki, Abdulla Qodiriyning

“Mehrobdan chayon” asarida Xudoyorxonning xotini **Og’acha oyim**, bu obrazning asl ismi Ma’suda xonim bo’lgan: *Og’acha oyim deb mashhur bo’lishiga uning Qashqar qizi bo’lganligidandir. Uyg’urlar bizdagi kabi “xonim, bekach” deyish o’rniga “Og’acha” deganlar* (Qodiriy 2019).

E.Begmatovning quyidagi fikrlarini keltirish o’rinli: “Ismlarning asosiy lisoniy-kommunikativ vazifasi har bir shaxsni yakka atash orqali uni boshqa shaxslardan farqlash, ajratishga xizmat qilishdan iborat. E’tibor berib qaralsa, hech bir ism shunchaki tanlanib bolaga qo’yilmaydi. Har qanday ism berilishi zamirida ota-onalarning biror maqsad, orzu-umidlari, farzandining sog’ligi, kelajagi, istiqbolini ko’zlagan ezgu niyatlar yotadi. Mana shu niyatlar bolaga ism tanlash va berish uchun asos vazifasini o’taydi (Begmatov 2014, 3).

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, umumdilda qo’llangan har qanday kishining ismi, taxallusi, laqabi *antroponim* termini ostida umumlashtiriladi. Biroq badiiy matnda alohida maqsad bilan qo’llangan kishi nomlari ham antroponim terminiga oid hisoblanadi. Bunday birliklar funksional-stilistik jihatdan muayyan vazifalarni bajarishga xoslangan. Shuningdek, antroponimlar semantik va struktural jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega bo’ladi:

- antroponimlar alohida ma’no bilan to’yingan bo’ladi, yozuvchilar qahramon ismiga uning xatti-harakati, fe’l-atvori, tashqi ko’rinishi bilan bo’g’liq ma’lumotlarga tayanib tanlanadi;

- badiiy asardagi antroponimlar real nomlardan keskin farqlanadi. Ulardagi informativlik badiiyat bilan aloqador bo’lib, ular yozuvchi tafakkurining hosilasidir;

- antroponimik birliklarga kiruvchi ism, ota ismi, familiya, laqab hamda taxalluslarning stilistik-funksional xususiyatini ta’kidlash mumkin. Ma’lumki, ismlar o’zbek onomastikasining antroponimiya ko’lamiga mansub bo’lib, ular kishilarni nomlashda eng ko’p qo’llangan birlikdir;

- ismlar-odamlarga yoshlik paytida beriluvchi atoqli ot bo’lib, ular insonning kundalik faoliyati, hayoti uchun g’oyatda muhimdir. Bu borada o’zbek ismlarining juda katta boyligi bir joyga to’plab, ma’nosini izohlab berish orqali kelajak avlodga arzigulik ma’naviy meros qoldirilgan.

Badiiy matnda qo’llangan har bir til birligi asarning mavzusi, g’oyasi bilan bog’liq tarzda ma’lum vazifalarni bajaradi. Jumladan, shoir va yozuvchining taxallusi o’z sohibini atash, boshqalardan farqlash, she’riy asar kimning ijodiga mansubligini ifodalashdan

tashqari muayyan uslubiy, badiiy vazifalarni ham bajaradi.

O'zbek antroponimlarini lingvistik, pragmalolingvistik, lingvokognitiv aspektlarda tahlil qilish xalqning olamni idrok etish xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy munosabati, tafakkurini yoritishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- Бегматов Э. (1991). Ўзбек исмлари. Қомуслар Бош таҳририяти. – Тошкент.
- Begmatov, E. (2014). Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O'zbekiston.
